

**BUZOQLARDA KOLIBAKTERIOZ KASALLIGINI  
DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI**

*Arziyev Xidir Yuldashovich*

*TDAU dotsenti, v.f.n. E-mail: [arziyevxidir70@mail.ru](mailto:arziyevxidir70@mail.ru)*

*Worazbaey Janibek Keunimjay uli' - izlanuvchi*

*Shoasrarov Akmal Abbos o'g'li - izlanuvchi*

**Qisqacha mazmuni:** Maqolada Qoraqalpoqiston respublikasi Nukus tumani hududidagi "Qung'iratbay-mexri" chorvachilik fermer xo'jaligida tabiiy sharoitda kolibakterioz kasalligiga chalingan buzoqlar 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida muskul orasga Tilozin preparati yuborilib davolanganda hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 8 kun, Enronit preparati yuborilib davolanganda esa hayvonlarning tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 4 kun sarflanganligi, polivalent vaktsina bilan emlangan 100 bosh buzoqlarda bir yil davomida kasallik kuzatilmaganligiga to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Kolibakterioz, rezistentlik, patogen bakteriyalar, virulentlik, polivalent vaktsina, zoogigienik me'yorlar, latent shakli, intensiv parvarishlash Tilozin, Enronit, Mambillyard.

**Mavzuning dolzarbligi:** Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat masalasini hal etish eng dolzarb muammo sanaladi. Bu muammoning asosida hayvonat olamidani olinadigan go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, kupaytirish, ya'ni chorvachilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish yotadi. Hech kimga sir emaski hozirgi vaqtda dunyo aholisi, jumladan bizning respublikamiz aholisi ham jadal kupaymoqda, shunga muvofiq chorva mollari soni va ulardan olinayotgan hayvonat mahsulotlari miqdorini oshirishni hozirgi davr taqoza qilmoqda, chunki bu mahsulotlarga bo'lgan aholi ehtiyojini tulig'icha ta'minlash lozim. Aholini go'sht, sut va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini tula qondirish uchun chorva hayvonlarini sonini kupaytirish, mahalliy zotdagi hayvonlarni mahsuldor zotlilariga almashtirish, intensiv parvarishlash orqali bu maqsadga erishish mumkin. Shuning uchun bugungi kun chorvadorlar, hususan veterinariya mutaxasislari oldiga juda katta vazifalarni quyimoqda. Chunki hayvonlardan sifatli va ko'p miqdorda mahsulot olish uchun avvalo ularning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom havonlar poda sutrukturasini yaratish lozim. Chorvachilikda o'tkaziladigan barcha chora- tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish juda muhim chunki yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklar hayvonlardan olinadigan chorva mahsulotlarini keskin kamaytiradi, kupincha hayvonlar bosh sonini ham sezilarli darajada kamaytiradi va shu bilan xalq xo'jaligiga qolaversa davlat byudjetiga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Iqtisodiy zararning asosiy qismini ya'ni eng

ko'pini yuqumli kasalliklardan keladigan iqtisodiy zarar tashkil qiladi. Chorva hayvonlariga katta xavf soladigan kasalliklar kasalliklar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Adabiyotlarda keltirilgan dalillarga ko'ra birgina oqsil kasalligidan keladigan iqtisodiy zarar, barcha invazion kasalliklar keltiradigan iqtisodiy zararga teng bo'ladi. Hayvonlarda uchraydigan kolibakterioz kasalligi ham yirik va mayda shoxli hayvonlar, hususan xorijdan keltirilgan naslli mollar orasida juda ko'p uchraydi va chorvachilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Jumladan hayvonlardan olinadigan mahsulotlarning miqdori kamayadi, sifati bo'zilib iste'molga yaroqsiz bo'lib qoladi. Kasallik tarqalgan hududlarda kasallangan yosh hayvonlarning 10-15 foizi, davolash ishlari samarali tashkil qilinmagan chorvachilik xujaliklarida esa 60-70 foizgacha o'lishi mumkin. Bundan tashqari davolash va oldini olish tadbirlarini o'tkazish uchun ham iqtisodiy jihatdan xarajat qilinadi. Bu kasallik hayvonlar organizmiga tayoqcha shaklidagi E.coli bakteriyasining kirish bilan rivojlanadi. Yosh hayvonlarda kolibakterioz o'tkir kechuvchi xavfli yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi va katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Kolibakteriozning qo'zg'atuvchisi ichak tayoqchasi hayvonlarga tug'ilgandan keyin 1-7 kunligida kuchli ta'sir qiladi, bo'zoqlar o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, malakali davolash o'tkazilmasa o'limga olib keladi. Kolibakterioz ko'pincha cho'chqa, qoramol va qo'ylarda kuzatiladi. Patogen bakteriyalar onaning ichaklarida yashaydi, ular hech qanday alomat ko'rsatmaydi. Yangi tug'ilgan buzoqlarga sut yoki ifloslangan elin orqali yuqadi. Yosh hayvonlar yuqtirgandan so'ng, bakteriyalar najas orqali faol tarqaladi. Bakteriyalar xodimlarning kiyim-kechak va poyabzallarini, shuningdek, hasharotlar va kemiruvchilar orqali ferma bo'ylab tarqalishi mumkin.

Mirziyoyev Sh.M. Ózbekiston Respublikasi Prizidentining 2019 yil

7-noyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ –4512- sonli qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasi Buzatav, Muynoq, Qung'iroq va Taxtakupir tumanlarini chorvachilikka ixtisoslashtirish, ushbu hududlarda zamonaviy chorvachilik koplekslarini ishga tushirish, yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanish hisobiga aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash darajasini yaxshilash ko'zda tutilgan.

X.S.Salimov, A.A. Qambarov va I.X.Salimovlarning ma'lumotlariga ko'ra bu kasallik bilan asosan yosh hayvonlar kasallanadi. Moyillik bo'yicha chuchqa, qoramollar, quy-echkilar va otlar oldinma keyin o'rinlarni egallaydi. Hamma yoshdagi, katta yoshdagi hayvonlarda kasallik latent shaklida kechadi, biroq yosh hayvonlar ko'proq kasallanadi. Buning asosiy sababi yosh hayvonlarda himoya mexanizmi yaxshi rivojlanmaganligidir. Kasallik rivojlanishida hayvonlarni rezistentligini ta'minlovchi zoogigienik me'yorlar asosida saqlash, parvarish qilish va to'yimli ozuqalar bilan boqish hamda organizmga kirgan quzg'atuvchining miqdori va

virulentligi katta ahamiyatga ega. Kasallikka quyon va parrandalardan tovuqlar eng moyil hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi** Qoraqolpoqiston respublikasiga xorijdan olib kelingan yirik shoxli hayvonlarda kolibakterioz kasalligini oldini olishning samarali usulini ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari.** Mazkur qo'yilgan maqsadni bajarish uchun quyidagi vazifalarini, yani ilmiy tadqiqotlar ishlarini amalga oshirishni lozim deb hisoblaymiz:

Tanlangan xo'jalikda bo'zoqlarni kolibakterioz bilan zararlanish darajasini aniqlash;

Kolibakterioz bilan kasallangan hayvonlarni ajratib ularni alohida saqlashni tashkil etish;

Kolibakterioz bilan kasallangan hayvonlarni xo'jalik, ya'ni ananaviy usulida va yangi preraratlar bilan davolash;

Xo'jalikda mavjud bo'lgan kolibakteriozga moyil hayvonlarni emlash;

**Tekshirish materiallari, usullari** Tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filali "Veterinariya va zootekhnologiya" fakulteti "Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi" kafedrasida o'quv laboratoriyasi, hamda Qoraqolpoqiston respublikasi Nukus tumani hududidagi "Qung'iratbay-mexri" chorvachilik fermer xo'jaligi sharoitida parvarishlanayotgan mahalliy zotli va xorijdan olib kelingan 108 bosh yirik shoxli hayvonlarda olib borildi. Tadqiqotlar davomida mazkur xo'jalik sharoitida parvarishlanayotgan va kasallikka chalingan buzoqlardan 8 boshi 4 boshdan 2 guruhga bo'lindi va har bir guruh alohida preparatlar bilan davolandi. Davolashdan oldin kasal hayvonlardan patologik namunalari olindi va Qoraqolpoqiston respublikasi hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markaziga olib borilib bakteriologik jihatdan tekshirildi. Kasallik kuzatilmagan 100 bosh buzoqqa veterinariya ilmiy tadqiqot institutida ishlab chiqarilgan vaktsina bilan emlandi.

**Tadqiqot natijalari** Tadqiqotlar Qoraqolpoqiston respublikasi Nukus tumani hududidagi "Qung'iratbay-mexri" chorvachilik fermer xo'jaligi sharoitida parvarishlanayotgan 108 bosh yirik shoxli hayvonlardan olib borildi. Xo'jalikdagi buzoqlar kuzdan kechirish, klinik, termometriya va laborator tekshirishlari o'tkazilganda 108 bosh buzoqlardan 8 boshida kolibakterioz kasalligi aniqlandi. Kolibakterioz bilan zararlanish darajasi 7,4 foizga teng bo'ldi. Kasallangan buzoqlar alohida xonalarga ajratilib davolandi. Tadqiqotlar davomida mazkur xo'jalik sharoitida parvarishlanayotgan va kasallikka chalingan buzoqlardan 8 boshi 4 boshdan 2 guruhga bo'lindi va har bir guruh alohida preparatlar bilan davolandi. Davolashdan oldin kasal hayvonlardan patologik namunalari olindi va Qoraqolpoqiston respublikasi hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markaziga olib borilib bakteriologik jihatdan tekshirildi. Tajribadagi I guruhdagi 4 bosh kolibakterioz bilan

kasallangan hayvonlarga Tilozin preparati bilan 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida muskul orasga yuborilib davolandi. Tajribadagi II guruhdagi 4 bosh kolibakterioz bilan kasallangan hayvonlar Enronit preparati bilan 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida muskul orasga yuborilib davolandi.

Tajribadagi kolibakteriozga chalingan buzoqlarni davolash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

**Kolibakteriozga chalingan buzoqlarni antibiotiklar bilan davolash natijalari**

1-jadval

T/r	Birka	Zoti	Qullanilgan preparatlar	Tuzalgan vaqti
1.	0046	Mambillyard.	Tilozin-200	7 kun
2.	0047	Mambillyard.	Tilozin-200	8 kun
3.	0048	Mambillyard.	Tilozin-200	8 kun
4.	0049	Mambillyard.	Tilozin-200	9 kun
<b>I</b>	<b>guruh</b>	<b>o'rtacha</b>		<b>8 kun</b>
1.	0084	Mambillyard.	Enronit	5 kun
2.	0085	Mambillyard.	Enronit	4 kun
3.	0086	Mambillyard.	Enronit	4 kun
4.	0087	Mambillyard.	Enronit	3 kun
<b>II</b>	<b>guruh</b>	<b>o'rtacha</b>		<b>4 kun</b>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida muskul orasga Tilozin preparati yuborilib davolangan I Tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 8 kun sarflandi, 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida muskul orasga Enronit preparati yuborilib davolangan II Tajriba guruhdagi kasal hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 4 kun sarflandi. Enronit preparatining davolash samarasi Tilozin preparatiga nisbatan ikki barobarga yuqori ekanligi tajribalarda isbotlandi.

Kasallikka chalinmagan 100 bosh buzoqqa veterinariya ilmiy tadqiqot institutida ishlab chiqarilgan polivalent vaktsina teri ostaga 14 kun oralig'ida ikki marta, har bir boshga birinchi marta 2 ml ikkinchi marta 3 ml miqdorida emlanganda bir yil davomida kasallik kuzatilmadi.

**Xulosalar:**

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining yakunlariga ko'ra qo'yidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Qoraqalpoqiston respublikasi Nukus tumani hududidagi "Qung'iratbay-mexri" chorvachilik fermer xo'jaligi sharoitida parvarishlanayotgan 108 bosh buzoqlarning kolibakterioz bilan zararlanish darajasi 7,4 foizga teng bo'ldi.

2. Kolibakteriozga chalingan buzoqlarning 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida

muskul orasga Tilozin preparati yuborilib davolanganda hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 8 kun sarflandi.

3. Kolibakteriozga chalingan buzoqlarning 100 kg tirik vazniga 5 ml miqdorida muskul orasga Enronit preparati yuborilib davolanganda hayvonlar tuliq tuzalishi uchun o'rtacha 4 kun sarflandi.

4. Polivalent vaksina bilan emlangan 100 bosh buzoqlarda bir yil davomida kolibakterioz kasalligi kuzatilmadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7-noyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ –4512- sonli qarori.
2. Salimov X.S., Qambarov A.A. va Salimov I. X.: "Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar" darslik Samarqand-2021. 167-174 betlar.
3. Shapulatova Z. J. Mikrobiologiya fanidan o'quv qullanma (ameliy ham laboratoriya mashg'lotlari ). Tashkent, 2013 y.